

**JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI
HISOBLASH VA UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi
Soliq qo'mitasi huzuridagi
Fiskal instituti magistranti
Bozorov Eldor Ermatovich
Bozorov_e@gmail.com*

Annotatsiya: Soliq siyosati va soliq, tizimini takomillashtirish masalalari hozirgi kunda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qayta shakllantirish amalga oshirilayotgan bir davrda iqtisodiy islohotlar ichida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Soliq tizimida mulk solig'i alohida o'rin tutadi, ulardan biri bu maqolada ko'rib chiqilgan yer solig'i. Ko'chmas mulkka soliq solishning tub islohotlari fonida yerga soliq solishni o'rganish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu islohotlarning natijalari yuridik va jismoniy shaxslarga birdek ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, islohotning har qanday natijalari haqida gapirishga hali erta, chunki u uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq, stavka, mol-mulk, mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslar, yer solig'i, mol-mulk solig'i, kadastr qiymati, bozor qiymati, ko'chmas mulk solig'i, mahalliy byudjetlar, budjet daromadlari, soliqqa tortish, soliqlar va yig'imlar, soliq kodeksi.

Annotation: Issues of Tax Policy and improvement of the tax system occupy one of the central places within economic reforms in a period when the reshaping is currently being carried out in the socio-economic life of the Republic. A special place in the tax system is occupied by property taxes, one of which is the land tax, which is considered in this article. The study of taxation of land against the background of radical reforms to the taxation of real estate is of particular relevance. The results of these reforms have the same effect on legal entities and individuals. Nevertheless, it is too early to talk about any results of the reform, since it is aimed at a long-term perspective.

Keywords: tax, rate, property, property tax, individuals, land tax, property tax, cadastral value, market value, real estate tax, local budgets, budget revenues, taxation, taxes and fees, tax code.

KIRISH

Soliq siyosati va soliq, tizimini takomillashtirish masalalari hozirgi kunda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qayta shakllantirish amalga oshirilayotgan bir davrda iqtisodiy islohotlar ichida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Bozor

iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida moliyaviy munosabatlar, shu jumladan, korxonalar, tashkilot hamda birlashmalarning davlat byudjeti bilan soliqlar bo'yicha munosabatlardagi hisob-kitoblarini takomillashtirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy budjet daromad qismini shakllantiruvchi soliqlardan biridir. Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

Soliq siyosati va soliq, tizimini takomillashtirish masalalari hozirgi kunda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qayta shakllantirish amalga oshirilayotgan bir davrda iqtisodiy islohotlar ichida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida moliyaviy munosabatlar, shu jumladan, korxonalar, tashkilot hamda birlashmalarning davlat byudjeti bilan soliqlar bo'yicha munosabatlardagi hisob-kitoblarini takomillashtirish dolzarb muammo byudjetga undiriladigan mol-mulkini soliqqa tortish rolini oshirish yo'llarini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari, ularning vazifalari, xususiyatlari va undagi muammolar bo'yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalari F.Nitti, D.Rikardo, A.Smit, V.N.Tverdoxlebov va I.I. Yanjul kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy ishlar D.A. Allaxverdyan, E.A. Voznesenskiy, I.V. Gorskiy, L.A. Drabozina, A.Laffer, N.V. Milyakov, V.M. Rodionova, I.D. Zlobin, D.G. Chernik, M.K. Shermeneva kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy kitoblarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, mol-mulkdan olinadigan soliq bilan bog'liq bo'lgan masalalar Alimardonov M., Gadoev E.F., Galkin V.Yu., Zaynalov J.R., Malikov T.S., Olimjonov O.O., Sobirov H.R., Sharifxo'jaev M.Sh., Umarov B., Yahyoev Q., Yo'ldoshev M.I. kabi o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislarining ilmiy va amaliy ishlarida o'z aksini topgan. Ammo, hozirgi vaqtgacha korxonalar mol-mulkidan olinadigan soliqqa bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarlicha emas. Amalda qo'llanilib kelinayotgan mol-mulkdan olinadigan soliq mexanizmida bir qancha kamchiliklar mavjud ekanligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish masalalari va mamlakatimizda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarining budjet daromadlarini shakllantirishdagi

o'zni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mol-mulk solig'i mahalliy soliqlarning bir turi bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi. Mulkida ushbu Kodeksning 419-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulk jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig' soliq solish obyekti hisoblanadi.

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlar.¹

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga ushbu obyektning qurilishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan, ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Ushbu imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning

¹ <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=59751>

ma'lumotnomasi asosida, nogironligi bo'lgan boshqa shaxslarga (qatnashchilarga) nogironligi bo'lgan shaxsning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi asosida beriladi.

3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari hamda beva xotinlari (beva erlari).

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga.

5) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar. Mazkur imtiyoz yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga davlat tomonidan ajratiladigan uy-joy uchun ular yigirma uch yoshga to'lguniga qadar amal qiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 2020-yildagi yangi tahrirda 418- va 419-moddalariga asosan, egaligida soliq solinadigan mol-mulki hamda yer uchastkalari bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Bunda, agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Soliq kodeksining 418- va 419-moddalariga muvofiq soliq obektlariga jismoniy shaxs egaligidagi uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar hamda qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari kiradi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari Soliq kodeksining 433- va 265-moddalariga asosan soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan

huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organing ma'lumotlari va qonunchilik bilan belgilangan stavkalar asosida hisoblab chiqariladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatga oluvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulkning shartli qiymatidan kelib chiqib ikki baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslarga hisoblangan mol-mulk va yer soliqlari jismoniy shaxslar tomonidan soliq davri uchun hisobot yilining 15 oktabriga qadar to'lanadi. Shu bilan birga, Soliq kodeksining 36-moddasiga asosan, soliq to'lovchilar soliq to'lash majburiyatlarini muddatidan ilgari bajarishga ham haqlidir.

Eslatib o'tish joizki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tadbirkorlik sub'yektlari va fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni bankka bormasdan «CLICK», «U-PAY», «MBANK» va «PayMe» to'lov tizimlari yordamida mobil telefon yoki internet orqali onlayn rejimda to'lash imkoniyati yaratilgan. Ushbu to'lov tizimidan foydalanish fuqarolar uchun bepul va amalga oshirilgan to'lovlar uchun komission to'lov olinmaydi. Shuningdek, to'langan soliqlar haqidagi ma'lumotlar soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalariga avtomatik ravishda qayd qilinadi.

2024-yildan Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari oshirildi va ularni hisoblash tartibi o'zgardi. Endi jismoniy shaxslar uchun noturar joy obyektlarining soliq bazasini hisoblash tartibi yuridik shaxslar uchun belgilangan tartib bilan bir xil bo'ladi. Shavkat Mirziyoyev 28-dekabr kuni soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonunni imzoladi. Bunda 2024 yil uchun mol-mulk solig'i (1,5 foiz) stavkalari o'zgarmadi.

2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda "Ilmiy-tadqiqot" markazlari yuridik shaxslarning ushbu markazlar ob'yektlari va ular egallab turgan yer uchastkalari bo'yicha mol-mulk solig'i hamda yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini to'laydi. ushbu soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek 1 foiz soliq stavkasi bo'yicha ijtimoiy soliq to'laydi.

1-yanvardan O'zbekistonda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari oshirildi va ularni hisoblash tartibi o'zgardi. Bu soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilingani munosabati bilan qonun hujjatlariga

o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan. Tariflar 10,7–12,2 foizga oshdi.

1-jadval
Soliq stavkalarining belgilanishi²

№	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, % da	
		2023-yil	2024-yil
1	Umumiy maydoni 200 kvadrat metrgacha bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,28	0,31
2	Umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar:		
	200 kv.m dan 500 kv.m gacha	0,37	0,41
	500 kv.m dan ortiq	0,49	0,55
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,37	0,41
4	Tadbirkorlik faoliyati uchun yuridik shaxs yoki YATTga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va/yoki daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	1.5	1.5

Shu bilan birga, Soliq qo'mitasi qayd etganidek, soliq yukini adolatli taqsimlash maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan tadbirkorlik faoliyati uchun yuridik shaxs yoki YATTga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va/yoki daromadlar olish uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektlarining soliq bazasini hisoblash tartibi yuridik shaxslar uchun belgilangan tartib bilan birxillashtirildi. Ushbu o'zgarishlar aholining uy-joy mulkiga ta'sir qilmaydi.

² <https://lex.uz/ru/docs/-6718864>

Ya'ni 2024-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar egaligidagi noturar obyektlarning soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kvadrat metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lishi mumkin emas:

- Toshkent shahrida — 3 mln so'm;
- Nukus shahrida va viloyat markazlarida — 2 mln so'm;
- boshqa shaharlarda va qishloq joylarda — 1,2 mln so'm.

Bunday qaror turar joy bo'lmagan yirik binolar (ofislar), jumladan, yirik mahalliy kompaniyalarga qarashli binolar jismoniy shaxslarga nomiga ro'yxatga olingani sababli qabul qilingan.

Agar obyektning 1 kvadrat metri qiymati belgilangan minimal miqdordan past bo'lsa, soliq to'lovchilar ko'chmas mulk qiymatini soliq solish maqsadlarida baholash uchun mustaqil baholovchilarni jalb qilishlari mumkin. Bunda, mustaqil baholash natijalari soliq solinadigan baza sifatida tan olinadi.

O'zgartirishlarga ko'ra, jismoniy shaxslar so'nggi 2 yil davomida baholovchi tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan ko'chmas mulkni baholash natijalaridan mol-mulk solig'i bazasini aniqlashda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, 1 kvadrat metr uchun minimal qiymat tartibi jismoniy shaxslar egaligidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan ko'chmas mulk obyektlari hamda minoralar, ko'priklar (estakadalar), rezervuarlar (o't o'chirish inshootlari, sisternalar), bostirmalar, shiyponlar, beton maydonlar va devorlar (bordiyurlar)ga nisbatan qo'llanmaydi.

Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

- Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko'ra bo'lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

- Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

- Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

- Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

• Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

• Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

• Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

• Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

• Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1-martdan kechiktirmay topshiriladi.

• Soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15-aprelga va 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

Xulosa

Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati soliqning mazmunidan kelib chiqadi. Mol-mulkni soliqqa tortish orqali birinchidan, jamiyat boyligi, u kimga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar soliqqa tortish mexanizmi orqali mol-mulk tartibga solinadi va ikkinchidan esa, boylarning muayyan qismi davlat byudjetiga - xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida qonunlarda belgilangan tartibda qayta taqsimlanadi. Davlat jismoniy shaxslar molmulkining ko'payishidan manfaatdor. Jismoniy shaxslar esa o'z molmulklarining daxlsizligidan manfaatdor bo'ladilar, buning evaziga o'z mol-mulkidan davlatga belgilangan tartib va stavkalarda soliq to'lab boradilar.

Mol-mulkni soliqqa tortishning umumiy tartibi bo'yicha mol-mulk ikki guruhga: ko'chmas va ko'char mulklarga bo'lib soliqqa tortiladi. Ko'chmas mulklarga yer uchastkalari kiradi, unda turgan bino, inshoot va boshqa doimiy joylashgan kurilishlardir. Mazkur yondashuvdan kelib chikib, ko'char mulklar ham o'z navbatida

yer bilan bog‘liq va bog‘lanmagan boylıklarga ajratish mumkin. Ko‘chmas mulklarga ko‘prok egalik qilish hozirgi sharoitda bazi shartlarni keltirib chiqaradi, sababi mulk solig‘ining ob‘ekti asosan ko‘chmas mulklarga qaratilgan. Mol-mulk solig‘i ob‘ektining bunday tabaqalanishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga soliqlarning samarali ta’sir richaglarini qo‘llashda imkoniyatlarni chegaralab qo‘yadi, chunki aksariyat hollarda ko‘chmas mulk ob‘ektlari ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan yoki foydalanmaydigan mol-mulk bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan rivojlangan davlatlarda, mol-mulkni soliqqa tortishda tijorat faoliyatida qatnashadigan va tijorat faoliyatida qatnashmaydigan asosiy vositalarga ajratgan holda soliqqa tortiladi.

Mamlakatimizda yer solig‘ini undirishda bir qator muammolarga duch kelamiz. Xususan, yer solig‘i yerdan foydalanish darajasi va tabiatiga unchalik ta’sir qilmaydi, dehqonchilikning eng samarali usullaridan foydalanishni rag‘batlantirmaydi. Suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlarni vaqtinchalik soliqdan ozod etish kabi turli imtiyozlarning qo‘llanilishi ushbu muammo yechimi bo‘la oladi. Yer solig‘ining soliq to‘lovchi moliyaviy ahvoriga bog‘liq emasligi. Soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyati bor-yo‘qligidan qat’i nazar, soliqlar undirilishi kerak. Soliqning ushbu jihati byudjet mablag‘larini barqarorligini ta’minlasada, kezi kelganda soliq to‘lovchilarning imtiyozga muhtoj qatlamlari uchun og‘irlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qarori
5. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 359-sonli qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qarori, 2012 yil 21 mart

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-4996-sonli qarori
8. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
9. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
10. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–891-son Qonuni
11. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
12. Alimardonov M., To‘xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O‘zbekiston Yozuvchilaru yushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
13. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
14. Sanaqulova B. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash. Monografiya. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. -252 b.
15. Sobirov H. O‘zbekiston davlat moliyasi tarixi. – T.: “Ta‘lim manbai”, 2002
16. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002
17. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «ИНФРА-М», 2008. -520 с.
18. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni).
19. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
20. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
21. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
22. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti